

Yoshlarning Ekologik Ong Va Ekologik Madaniyatini Oshirish Ekologik Muammolarni Oldini Olish Vositasi Sifatida

Axrorova Mohinur Akobir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning ekologik ong va madaniyatini oshirishning ahamiyati, bu jarayonning ekologik muammolarni oldini olishdagi roli va jahon tajribasi tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek milliy qadriyatlari va etnomadaniyati negizida ekologik madaniyatni rivojlantirish yo'llari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologiya, ekologik muammo, artof-muhit, yoshlar, ta'lim va tarbiya, statistika, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari.

KIRISH

Bugungi kunda global miqyosda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi muammolar barcha davlatlar uchun umumiy bo'lib, ularni hal etish ko'p tomonlama yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ekologik muammolarni oldini olishda yosh avlodning tutgan o'рни muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar kelajak jamiyatining poydevori hisoblanadi, shuning uchun ularning ekologik ong va madaniyatini rivojlantirish, ularni atrof-muhit muhofazasiga jalb qilish orqali barqaror kelajakni ta'minlash mumkin. Ekologik madaniyat — bu nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, balki uning holatini yaxshilashga qaratilgan amaliyotdir. Yoshlarning ekologik ongini shakllantirish esa, ularga tabiat bilan uyg'unlikda yashashni o'rgatish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni anglashlariga yordam beradi.

Mavzuning dolzarbligi ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish muammosi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u bugungi kunda jiddiy ekologik inqirozlarni oldini olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar orasida ekologik masalalarga befarqlik, milliy va an'anaviy bilimlarning yo'qolishi, ta'lim va tarbiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklar kabi omillar muammoning ko'lamini va dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, ekologik ongning past darajasi, ekologik madaniyatning yo'qolishi, yoshlarning ekologik ta'lim darajasining pastligi, yoshlar orasida ekologik faoliyat va ishtirok yetishmasligi kabi muammolarni xalqaro va milliy qonunchilik doirasida o'z yechimini topmasa, bu kichik muammo kelajakda turli xil jiddiy ekologik muammolar, jumladan, cho'llanish, iqlimning sezilarli darajada o'zgarishi, hayvonlar va o'simliklarning kamayib ketishi, chiqindilarning miqdori oshib ketishi va boshqa shunga o'xshash muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Yuqoridagi barcha omillarni hisobga olgan holda, ekologik muammolar va ularning dolzarbligi hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, yoshlar orasida bu masalalarga yetarli darajada e'tibor qaratish kelajakda ekologik inqirozlarni bartaraf etish uchun juda muhim hisoblanadi. Agar bu masalalar e'tiborsiz qoldirilsa, kelajak avlodlar duch keladigan ekologik muammolar yanada murakkablashishi mumkin.

MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Ekologik ong – bu insonning atrof-muhitga nisbatan axloqiy mas’uliyatini anglashdir. Ekologik ongga ega bo’lgan shaxslar tabiatni asrab-avaylash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga intiladi. Bu shaxslar ekologik muammolarning oldini olishda faol ishtirok etadi, masalan, chiqindilarni to’g’ri tasniflash, energiyani tejash yoki barqaror mahsulotlarni tanlash orqali.

Olimlar yoshlarning ekologik ongi yuqori bo’lgan taqdirda, ular atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga mas’uliyat bilan yondashib, turli ekologik muammolarning oldini olishda faol ishtirok etishini ta’kidlaydilar. Masalan, *Arjen Vals* o’z tadqiqotida shunday deydi: “Yoshlarning ekologik ongi rivojlangan sayin, ular kundalik hayotda ekologik qarorlarni ongli ravishda qabul qilishga va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka intilishadi, bu esa ekologik muammolarni oldini olishda hal qiluvchi omil bo’ladi” [1].

Bundan tashqari, o’tgan asrning mashhur amerikalik yozuvchisi Aldo Leopold ekologik ongni “Yer axloqi” tushunchasi bilan bog’lagan. Uning fikriga ko’ra, ekologik ong insoniyatning tabiat bilan ma’naviy aloqasi va yerga nisbatan mas’uliyat tuyg’usini ifodalaydi. Leopoldning “Yer axloqi” tushunchasi tabiatni faqatgina resurslar manbai sifatida emas, balki tirik tizim sifatida ko’rishga undaydi [2].

Shuningdek, David Orr ekologik ongni ta’lim bilan bog’laydi. U “Earth in Mind” kitobida ekologik ta’limni har bir shaxsning ongli va axloqiy rivojlanishi uchun zaruriy qism deb hisoblaydi. Orrning fikricha, ekologik ongni shakllantirish ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo’lishi kerak [3].

Ekologik ong oshishi bilan nafaqat yoshlar, umuman insoniyat tabiatga zarar yetkazmaslik uchun shaxsiy va ijtimoiy harakatlarda ko’proq mas’uliyatni o’z zimmlariga oladilar. Bu ekologik muammolarni oldini olishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi, chunki odamlar o’z harakatlarining oqibatlarini tushunib yetadilar va ularni minimallashtirishga harakat qiladilar.

Ekologik madaniyat (yoki etnomadaniyat) – bu huquqiy madaniyatning bir sohasi bo’lib, u jamiyatning ekologik ong va qadriyatlarini o’z ichiga olgan madaniy amaliyotlar majmuidir. Bu atrof-muhitni muhofaza qilish bo’yicha kollektiv maqsadlar va harakatlar, shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyatidir. Oddiy so’zlar bilan aytganda, ekologik madaniyat insonlarning ekologik ongini amaliyotga aylantirishi, ya’ni tabiatga bo’lgan munosabatda o’zini qanday tutishidir.

Ekolog olimlar ekologik madaniyatni atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan bilim va ko’nikmalar yig’indisi sifatida ko’radi. Masalan, ekologik pedagogika bo’yicha tadqiqotchi Oljas Suleymenov ekologik madaniyatni “insoniyatning tabiat bilan uyg’un hayot kechirishini ta’minlovchi jamiyatning barcha a’zolariga xos bo’lgan umumiy axloqiy qadriyatlar” deb ta’riflagan [4].

Ekologik madaniyat yoshlarning turmush tarzini, qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiradi. *David Orr* bu haqida shunday yozadi: “Ekologik madaniyatni shakllantirish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki insoniyatning kelajak avlodlari uchun barqaror hayotni ta’minlashga yordam beradi” [3].

Arne Naess esa ekologik madaniyatni chuqur ekologiya (deep ecology) falsafasi orqali tushuntiradi. Uning fikricha, ekologik madaniyat insonlarning tabiatning bir qismi sifatida o’zlarini anglashlari va tabiatni himoya qilishda axloqiy javobgarlikni qabul qilishlariga asoslanadi. Naessning fikricha, ekologik madaniyatning rivojlanishi insonning ruhiy holati va atrof-muhit bilan uyg’unlashishiga bog’liq [5].

Ekologik madaniyat yuqori bo’lgan jamiyatlarda ekologik muammolarni oldini olish osonroq bo’ladi, chunki bu jamiyatda yashovchilar bir-birini qo’llab-quvvatlab, tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ifloslanishni kamaytirish va barqaror hayot tarzini targ’ib qilish bo’yicha birgalikda harakat qilishadi.

Mavzu doirasida olib borilgan izlanishlar va statistikalar

Bugungi kundagi yoshlarning ekologik ong va madaniyati bo'yicha statistik ma'lumotlar va so'rovnomalar turli tashkilotlar va tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, YUNESKO tashkiloti 2020-yilda o'tkazgan "Yoshlarning ekologik savodxonligi" bo'yicha global tadqiqotida yoshlarning ekologik ong va madaniyati yuksalayotgani, lekin bu borada hali ham ko'p ishlar qilish kerakligi ta'kidlangan. Tadqiqotda 78 mamlakatdan 15-24 yoshdagi respondentlar ishtirok etgan.

➤ Statistika:

- 74% yoshlar ekologik muammolardan xabardor, ammo faqat 30% yoshlar ekologik faoliyatda qatnashgan.
- 60% yoshlar tabiatni asrash zarur deb biladi, ammo faqat 25% o'z amaliyotida ekologik tavsiyalarni qo'llashadi [6].

Shuningdek, YUNESKO tomonidan 4-Barqaror rivojlanish maqsadidan kelib chiqadigan "Ta'lim-2030" kun tartibini amalga oshirish maqsadida "Sayyoramiz uchun o'rgan" ("Learn for our planet") nomli kitob taqdim etildi. Ushbu kitobda YUNESKO davlatlari bo'ylab, turli xil so'rovnomalar va ularning natijalari keltirilgan. Ushbu kitobda ekologik ta'lim orqali yoshlarning atrof-muhit masalalarini yaxshiroq tushunishi va ularni barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan faoliyatlarga jalb etilishi ko'rsatilgan [7].

"Yoshlarning faqat yarmi iqlim o'zgarishining to'g'ri ta'rifini aniqlay oladi" – UNICEF, Gallup.

2023-yil 7-dekabrda Nyu-York va Dubay shaharlarida o'tkazilgan konferensiyaga ko'ra, ko'pchilik bolalar va yoshlar iqlim o'zgarishi haqida eshitganliklarini aytishadi, ammo UNICEF va Gallup tomonidan o'tkazilgan yangi so'rov natijalariga ko'ra, bu nima ekanligini ushbu yoshlarning faqatgina yarmi tushunadi.

Global so'rov shuni ko'rsatdiki, 55 ta davlatda so'rovda qatnashgan 15-24 yoshdagi yoshlarning o'rtacha 85 foizi iqlim o'zgarishi haqida eshitganini aytishgan, ammo ularning atigi 50 foizi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim bo'yicha doiraviy konventsiyasiga muvofiq to'g'ri ta'rifni tanlagan.

"Yoshlar iqlim o'zgarishi ta'siriga qarshi kurashda eng katta qahramonlardan biri bo'ldi. Ular ko'chalarda yoki yig'ilish xonalarida iqlim bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishga chaqirishdi va biz barcha bolalar va yoshlar o'z kelajagi bilan bog'liq inqirozni tushunishlari uchun ko'proq harakat qilishimiz kerak", deydi UNICEF ijrochi direktori **Ketrin Rassel**. Uning fikricha, "COP28da liderlar bolalar va yoshlarni muammo bo'yicha o'rgatishlari, muhokamalarda ko'rib chiqilishi va kelgusi o'nlab yillar davomida ularning hayotini belgilaydigan qarorlar qabul qilinishini ta'minlash majburiyatini olishlari kerak" [7].

Bundan tashqari, Gallup tomonidan 2021-yilda o'tkazilgan global so'rovnoma natijalariga ko'ra, 18-35 yosh oralig'idagi yoshlar orasida ekologik masalalar bo'yicha ongli qarashlar o'sib bormoqda. So'rovnoma 50 ta mamlakatda o'tkazilgan.

➤ Statistika:

- 67% yoshlar global isish va iqlim o'zgarishidan xavotirda.
- 53% yoshlar ekologik muammolarni hal qilishda hukumat va korporatsiyalarni mas'ul deb biladi [8].

Yoshlarga nisbatan keksa insonlar iqlim o'zgarishidan ko'proq tashvishlana boshladilar

Oldingi tadqiqotlar, jumladan, 2021-yilgi "Iqlim bo'yicha xalq ovozi" (People's Climate Vote 2021) natijalariga ko'ra, keksa odamlar yosh guruhlariga qaraganda iqlim o'zgarishidan kamroq tashvishlanishadi yoki iqlim o'zgarishi haqida kamroq ma'lumotga ega. 2021-yilgi "Iqlim bo'yicha xalq ovozi" so'rovnomasining barcha ishtirokchilari orasida 18 yoshdan kichik bo'lganlar (69 foiz)


60 yoshdan oshganlarga (58 foiz) qaraganda 11 foizga ko'proq iqlim o'zgarishini global favqulodda holat deb aytishgan.

Biroq, 2024 yilgi xalqlarning iqlim bo'yicha ovozi shuni ko'rsatdiki, o'tgan yil davomida barcha yoshdagi odamlarning aksariyati iqlim o'zgarishidan ko'proq xavotirda. Bu shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda keksa insonlar iqlim o'zgarishidan, ayniqsa, eng kam rivojlangan mamlakatlarda ko'proq tashvishlana boshlagan (1-rasm) [9].

Yoshlar orasida ekologik ong va etnomadaniyatni oshirishda OAV, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsiya vositalarining ta'siri

Bugungi kunda yoshlar orasida ekologik ongni oshirishda ommaviy axborot vositalari (OAV), ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsiya vositalarining roli juda muhim. Ushbu platformalar orqali yoshlar keng ko'lamlı axborotlarga ega bo'lishadi, ekologik muammolar va ularning yechimlari haqida xabardor bo'lishadi.

OAV, ayniqsa televideniye, radio va gazeta kabi an'anaviy axborot manbalari, ekologik masalalarni keng omma e'tiboriga yetkazishda katta rol o'ynaydi. Ekologik masalalarni ochib beruvchi hujjatli filmlar, tahliliy maqolalar va maxsus reportajlar orqali aholi, ayniqsa yoshlar ekologik muammolar haqida kengroq ma'lumot oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik xabardorlikni oshirishda OAVning ta'siri katta. Masalan, "National Geographic" va "Discovery Channel" kabi telekanallar orqali tarqatiladigan hujjatli filmlar tabiiy resurslarning holati, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar haqida chuqur tahlillarni taqdim etadi. Ushbu manbalar yoshlar orasida ekologik ongni oshirishda muhim o'rin tutadi [10]. OAV orqali berilgan axborot ko'pincha yoshlar orasida keng tarqaladi va ularning ekologik ongi va madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, iqlim o'zgarishi, plastmassalar muammosi yoki o'rmonlarni kesish kabi mavzular bo'yicha berilgan xabarlar yoshlarni faollikka undaydi va ularni ekologik harakatlarga jalb qiladi.



1-rasm. O'tgan yilgi bilan solishtirganda iqlim o'zgarishidan ko'proq xavotirda bo'lganlar foizi, so'rovnomada qatnashgan eng kam rivojlangan mamlakatlar, yosh bo'yicha

Ijtimoiy tarmoqlar esa ekologik ongni oshirishda zamonaviy yoshlarning asosiy kommunikatsiya vositalaridan biriga aylangan. Telegram, Instagram, Twitter, Facebook kabi platformalarda ekologik faollar va tashkilotlar tomonidan yaratilgan kontentlar tez tarqaladi va global darajada muhokama qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik harakatlarga oid hashtaglar (masalan, #SaveThePlanet, #ClimateAction) ijtimoiy tarmoqlarda katta auditoriyaga yetib boradi va yoshlarni ekologik faollikda ishtirok etishga undaydi. Yoshlar orasida ushbu harakatlar orqali ekologik ong va mas'uliyat oshadi, natijada ijtimoiy aksiyalar va ekologik faoliyatlar kengroq tarqaladi [11]. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ekologik masalalarga qiziqishini oshiradi, chunki bu platformalarda kontent tez tarqaladi va qiziqarli formatda taqdim etiladi. Yoshlar ekologik chaqiriqlarga javob berishadi, aksiyalarda ishtirok etishadi va atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan kampaniyalarni qo'llab-quvvatlashadi. Bu ekologik ong va madaniyatni oshirishda samarali vositadir.

Bloglar va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy postlar orqali ekologik muammolar haqida yoshlar o'z tajribalarini keng ommaga yetkazishadi. Shaxsiy tajribalar asosida yozilgan kontent boshqa yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otadi va real misollar orqali ekologik ong oshadi. Masalan, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash yoki ekologik mahsulotlardan foydalanish kabi tavsiyalar bloglar orqali keng tarqalib, amaliy qo'llanmalar sifatida xizmat qiladi. Bu turdagi postlar va bloglarning ta'siri ilmiy tadqiqotlarda ham qayd etilgan [12]. Bloglar va postlar orqali yoshlar ekologik masalalar haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladilar va ularni o'z hayotlariga tatbiq etishga harakat qiladilar.

Podkastlar ekologik masalalarni audio formatda chuqur tahlil qilish va muhokama qilish uchun samarali vosita hisoblanadi. Yoshlar o'zlarining bo'sh vaqtlarida yoki yo'l-yo'lakay podkastlarni tinglash orqali ekologik bilimlarini kengaytiradi. Podkastlarning interaktiv formatda bo'lishi, tinglovchilar va ekspertlar o'rtasida suhbatlar tashkil qilishi ekologik masalalarni yanada kengroq tushunishga yordam beradi. Podkastlarning ekologik ta'limdagi o'rni tadqiqotlarda o'z aksini topgan va bu vosita orqali yoshlar ekologik muammolarga yanada chuqurroq kirishish imkoniga ega [13]. Podkastlar yoshlar orasida ekologik muammolarni batafsil tushuntirish va jamoaviy muhokama qilish imkoniyatini beradi. Bu format orqali yoshlar ekologik muammolar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishadi va ularni yanada chuqurroq tushunishga intiladi.

Onlayn platformalar orqali ekologik harakatlar, petitsiyalar va kampaniyalar tezkorlik bilan tashkil qilinadi va keng auditoriyaga yetib boradi. Ushbu platformalar ekologik faollikni oshirishda katta rol o'ynaydi. Masalan, "Change.org" kabi platformalarda ekologik petitsiyalar orqali minglab odamlar ekologik harakatlarga jalb qilinadi va jamoaviy choralar ko'riladi. Ushbu vositalar ekologik ongni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarning ekologik masalalarga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yordam beradi [14]. Yoshlar onlayn platformalar orqali ekologik muammolarga qarshi birlashadilar va o'z fikr-mulohazalarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ekologik masalalar bo'yicha jamoaviy qarash va yechimlarni targ'ib qilishda kuchli vositadir.

Raqamli ta'lim platformalari, masalan "Coursera", "EdX" kabi onlayn ta'lim tizimlari orqali ekologik ta'lim olish imkoniyati kengaymoqda. Bu platformalarda mavjud bo'lgan ekologik kurslar va vebinarlar yoshlarning ekologik bilimlarini oshiradi va ekologik muammolarni chuqurroq tushunishga imkon beradi. O'quvchilar va talabalar ekologik masalalar haqida raqamli ta'lim platformalari orqali o'rgangan bilimlarini real hayotda qo'llashga harakat qiladilar [15]. Raqamli ta'lim platformalari orqali yoshlar ekologik bilimlarini oshirishadi va ekologik muammolarni tushunishga hissa qo'shishadi. Bu yoshlarni yanada ongli va mas'uliyatli bo'lishga undaydi.

Fikrlarni umumlashtirib aytganda, OAV, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsiya vositalari yoshlar orasida ekologik ongni oshirishda katta rol o'ynaydi. Ular yoshlarni ekologik muammolar haqida xabardor qilish, jamoaviy harakatlarni rag'batlantirish va ekologik madaniyatni shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu platformalar orqali yoshlar ekologik masalalarga qiziqish bildiradi va o'z amaliyotlarida ekologik qadriyatlarni amalga oshirishga intiladi.

Yoshlarning ekologik ong va madaniyatini oshirishda maktablar, oliygohlar va jamoat tashkilotlarining roli

Yoshlar orasida ekologik ong va madaniyatni oshirishda maktablar, oliy ta'lim muassasalari va jamoat tashkilotlarining o'rnini nihoyatda muhimdir. Ushbu muassasalar yoshlarni ekologik masalalarga jalb qilish va ekologik bilimlarni rivojlantirish orqali ekologik madaniyatni shakllantirishda faol ishtirok etadi. Quyida bu muassasalar ekologik ta'lim va ongni oshirishdagi o'rnini ilmiy manbalar asosida ko'rib chiqamiz.

Maktablar yosh avlodning ekologik bilimlarini shakllantiradigan eng birlamchi muassasalardan hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim darajasidan boshlab o'quvchilarga atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha bilimlar beriladi. Maktablarda ekologik mavzular biologiya, geografiya va tabiatshunoslik kabi fanlarda o'qitiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilari orasida ekologik ta'lim berish orqali ekologik masalalarga bo'lgan munosabat sezilarli darajada ijobiy o'zgaradi [16]. Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlar, jumladan, ekologik aksiyalar va tozalik haftaliklari kabi tadbirlar, o'quvchilarning tabiat bilan bevosita muloqotini ta'minlaydi. Bu esa ularning ekologik masalalarga nisbatan amaliy va mas'uliyatli munosabatini rivojlantiradi [17].

Oliy ta'lim muassasalarida esa ekologik bilimlar yanada chuqurroq beriladi. Universitetlar ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish va ekologik siyosat kabi sohalar bo'yicha mutaxassislar yetishtiradi. Bu ta'lim jarayonida talabalar nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar ham orttiradi. Talabalar ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etib, ekologik muammolarni chuqur o'rganish imkoniga ega bo'lishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, universitet talabalari orasida ekologik ta'lim berish ularning ekologik xabardorligini oshiradi va ularda ekologik faoliyatda ishtirok etish motivatsiyasini kuchaytiradi [18]. Oliy ta'lim muassasalari ekologik muammolarning yechimlari bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, universitetlarda faoliyat yurituvchi ekologik klublar va tashkilotlar talabalarga ekologik faollikni amaliyotda qo'llash va jamiyatda o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Jamoat tashkilotlari ham ekologik ta'limni rivojlantirishda va ekologik ongni oshirishda katta rol o'ynaydi. Nodon-tijorat tashkilotlari (NNTlar) jamoatchilik orasida ekologik xabardorlikni oshirishga qaratilgan kampaniyalar va treninglar tashkil qiladi. Bu tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan ekologik aksiyalar va tadbirlar yoshlarni faollikka undaydi va ekologik madaniyatni shakllantiradi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, jamoat tashkilotlari ekologik masalalar bo'yicha jamoatchilikni mobilizatsiya qilish va ekologik ongni oshirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi [19]. Shuningdek, bu tashkilotlar maktablar va universitetlar bilan hamkorlik qilib, yoshlar orasida ekologik loyihalarni amalga oshirishda yordam beradi. Ushbu hamkorlik o'quvchilar va talabalarga amaliy tajriba orttirish va ilmiy bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi.

Ma'rifiy faoliyat orqali ekologik madaniyatni oshirishning samaradorligi ko'plab tadqiqotlarda asoslab berilgan. Jamoat tashkilotlari o'quvchilar va talabalarni ekologik aksiyalarga jalb qilish orqali ularning ekologik masalalarga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishi mumkin. Ushbu jarayon orqali ekologik bilim va xabardorlik yoshlar orasida yanada kengroq tarqaladi va ular ekologik muammolarning yechimlariga ijobiy hissa qo'shadilar.

Xulosa qilib aytganda, maktablar, universitetlar va jamoat tashkilotlari ekologik ta'limda asosiy rol o'ynaydi. Maktablar ekologik bilimlarning asosini yaratadi, universitetlar ushbu bilimlarni chuqurlashtiradi va ilmiy asoslaydi, jamoat tashkilotlari esa ekologik ongni keng jamoatchilikka tarqatadi va amaliy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu uch muassasa birgalikda ishlaganda, yoshlar orasida ekologik ong va madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi yanada samarali kechadi.

Ekologik muammolarni oldini olishda oila va jamiyatning tutgan o'rnini

Yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini oshirishda yana bir muhim mezon bu oila va jamiyat hisoblanadi. Sababi, eng muhim va kerakli fazilatlar oila va jamiyat ichida shakllanadi. Agar ota-ona tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar, jumladan, iqlimning issib borishi, cho'llanishning ortishi, yashil boylik hisoblanmish daraxtlarning kesilishi, bioxilma-xillikning kamayib borayotganligi,

shuningdek insoniyat tufayli yiliga million tonnalab vujudga kelayotgan chiqindi muammosi, borgan sari kamayib borayotgan chuchuk suv muammosi va yana bir qancha muammolar haqida tasavvur va tushunchalarga ega bo'lmisalar va tabiatni asrab avaylamasalar ushbu oilada ulg'ayayotgan farzandlarda ham bu e'tiborsizlik davom etadi. Endi ushbu muammolarni hal qilishda oilaning va jamiyatning tutgan o'rni haqida bayon qilamiz.

Oilaning o'rni:

- **tarbiya va qadriyatlar:** Oila — bu eng birinchi ijtimoiy institut bo'lib, unda yoshlar atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarini shakllantiradilar. Ota-onalar tomonidan ekologik masalalarga nisbatan mas'uliyatli va ongli munosabatning namuna bo'lishi, farzandlarida tabiatni sevish va uni asrash madaniyatini rivojlantiradi.
- **kunlik odatlar:** Oiladagi ekologik madaniyat, masalan, chiqindilarni ajratib tashlash, energiyani tejash, suvni oqilona ishlatish kabi odatlar orqali yoshlarning ekologik mas'uliyatini oshiradi.
- **oila ichidagi muloqot:** Oilada ekologik masalalar muhokama qilinishi, yoshlarning tabiatga doir savollariga javob berilishi ularning ekologik bilimlarini kengaytiradi va ularni mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

Jamiyatning o'rni:

- **ta'lim tizimi:** Maktablar, kollejlilar va universitetlar yoshlarni ekologik savodxonlikka o'rgatish orqali ularning atrof-muhit bilan bog'liq masalalarga bo'lgan tushunchalarini chuqurlashtiradi. Shuningdek, ekologik tadbirlar va loyihalar orqali yoshlarni faol ishtirok etishga undaydi.
- **ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar:** Televideniye, radio, gazeta va internetdagi kontent orqali ekologik muammolar va ularning yechimlari haqida xabardorlikni oshiradi. Bu yoshlarni ekologik masalalarga nisbatan yanada hushyor va mas'uliyatli bo'lishga rag'batlantiradi.
- **jamoaviy harakatlar va nodavlat tashkilotlar:** Yoshlarni jalb qiladigan ekologik aksiyalar, seminarlar va kampaniyalar orqali jamiyat ekologik ongi va madaniyatini kuchaytiradi. Bunday tadbirlar yoshlarning jamiyatga ijtimoiy mas'uliyatni his qilishlarini ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ekologik ong va madaniyatini oshirish barqaror kelajakni ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Yoshlar orasida ekologik ongni oshirishning muhim usullaridan biri ularni ekologik ta'limga jalb qilish va ekologik mas'uliyatni kuchaytirishdir. Ushbu jarayonni yanada rivojlantirish uchun ta'lim tizimlari, davlat siyosati, va jamoatchilik tashkilotlari birgalikda ishlashlari lozim. Yoshlarning ekologik ong va madaniyatini oshirish bo'yicha asosiy takliflarim quyidagilardan iborat:

- Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsiya vositalarini jahon tajribalariga mos ravishda rivojlantirish, jumladan, yuqorida ta'kidlanganidek, "National Geographic" kabi teleko'rsatuvlar, turli xildagi hashtaglar(#SaveThePlanet), podkastlar, onlayn platformalar yaratish va ularning samarali ishlashi uchun shart-sharoit yaratish;
- yoshlarning ongiga ta'sir ko'rtashi mumkin bo'lgan va ekologik ta'lim bera oladigan kinofilmlar va multifilmlar yaratish;
- bog'cha va maktablarda majburiy tartibda qiziqarli darslik va amaliy mashg'ulotlarni amalga oshirishga targ'ib qilish;
- Atrof-muhitni himoya qilish va ekologik ong va madaniyatni rivojlantirishga hissa qo'shayotgan yoshlarni rag'batlantirishini qo'llab quvvatlash.

Shuningdek, yoshlarning ekologik bilim va ma'lumotlarini oshirishda yangi metod va texnologiyalarni joriy etish orqali ularning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi roli yanada kuchaytirilishi mumkin. Yoshlarni atrof-muhitni muhofaza qilishga undash va ularga ekologik muammolar haqida chuqurroq bilim berish kelajakda barqaror rivojlanishni ta'minlashda katta

ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yoshlarning ekologik ong va madaniyatini oshirish yo'lida olib borilayotgan harakatlarni davom ettirish va kengaytirish, ularni ekologik muammolarni hal qilishdagi faol ishtirokchilarga aylantirish uchun zarurdir. Shu yo'l bilan, yoshlarning ekologik ongi va madaniyati, ekologik muammolarni oldini olish va barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Wals, Arjen. (2016). Sustainability by Default: Co-creating care and relationality through environmental education. *The Journal of Environmental Education*, 47(2), 117-134.
2. Leopold, A. (1949). *A Sand County Almanac*. Oxford University Press.
3. Orr, D. W. (2004). *Earth in Mind: On Education, Environment, and the Human Prospect*. Island Press.
4. Suleymenov, O. (2020). *Ekologik pedagogika va etnomadaniyat*. Almaty: Kazakh National University Press.
5. Naess, A. (1989). *Ecology, Community and Lifestyle: Outline of an Ecosophy*. Cambridge University Press.
6. UNESCO (2020). *Youth and Environmental Sustainability: Global Perspectives*.
7. UNICEF and Gallup. "Only half of young people able to identify correct definition of climate change." UNICEF, 2023.
8. *Global Youth and Environmental Awareness Survey*. Gallup, 2021.
9. UNDP, June 2024. All rights reserved One United Nations Plaza, NEW YORK, NY10017, USA.
10. Boykoff, M. T. (2009). *We speak for the trees: Media reporting on the environment*. The New York Times.
11. Ristea, A. L., & Adam, M. (2021). Social media activism and climate change: Environmental communication in the digital age. *International Journal of Communication*.
12. Miles, S. (2018). Blogging as a tool for environmental education: Empowering youth through digital storytelling. *Environmental Education Research*.
13. Montgomery, J. (2020). The rise of podcasts in environmental education. *Journal of Environmental Communication*.
14. Shirky, C. (2011). The political power of social media: Technology, the public sphere, and political change. *Foreign Affairs*.
15. Peters, M. A., & Besley, T. (2015). Digital technologies and the future of education: Lessons from Coursera. *E-Learning and Digital Media*.
16. Tilbury, D. (1995). Environmental education for sustainability: Defining the new focus of environmental education in the 1990s. *Environmental Education Research*.
17. Bonnett, M. (2007). Environmental education and the issue of nature. *Journal of Curriculum Studies*.
18. Sterling, S. (2010). Transformative learning and sustainability: Sketching the conceptual ground. *Learning and Teaching in Higher Education*.
19. Gough, A. (2002). Mutualism: A different agenda for environmental and science education. *International Journal of Science Education*.